

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI**  
**BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XUDAYBERGENOVA NIGORA TURGUNBAYEVNA**

**IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MINLASHDA DAVLAT**  
**FISKAL VA MONETAR SIYOSATINING O'RNI**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**  
**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on  
economical sciences**

<b>Xudaybergenova Nigora Turgunbaevna</b> Iqtisodiy faollikni ta’minlashda davlat fiskal va monetar siyosatining o‘rni.....	3
<b>Худайбергенова Нигора Тургунбаевна</b> Роль государственной фискальной и монетарной политики в обеспечении экономической активности.....	25
<b>Khudaybergenova Nigora Turgunbaevna</b> The role of state fiscal and monetary policy in ensuring economic activity.....	49
<b>E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	53

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI**  
**BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XUDAYBERGENOVA NIGORA TURGUNBAYEVNA**

**IQTISODIY FAOLLIKNI TA'MINLASHDA DAVLAT**  
**FISKAL VA MONETAR SIYOSATINING O'RNI**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**  
**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Iqt1908 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Nazarova Fotima Xakimovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Nabiyev Elshod Ganiyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Elmirzayev Samariddin Eshquvatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti**  
**Toshkent shahri filiali**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49 - uy. Tel.: (99872) 239-28-72; faks: (99872) 239-01-49; e-mail: info@tseu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99872) 239-88-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tseu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**B.E. Mamaraximov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon mamlakatlaridagi barqaror o‘shish yirik bozorlarga ega AQSh, Xitoy kabi davlatlar iqtisodiyotining budjet tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi tufayli kechmoqda. Jumladan, “Jahon banki tomonidan o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, YaIMning 2024-yilda 3,1 foizga, 2025-yilda esa 3,2 foizga o‘shishi aynan yirik bozorlarga ega mamlakatlarga to‘g‘ri kelishi aniqlangan. Biroq, 2024-2025-yillardagi jahon iqtisodiyotining bunday prognozi mamlakatlarda olib borilayotgan monetar siyosatning inflyatsiyaga qarshi foiz stavkalarini oshirish, davlat fiskal siyosat orqali iqtisodiy faollikni ta‘minlashga qaratilgan qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy ko‘makni to‘xtatilishi va yalpi unumdorlikning past o‘shishi bilan kechishi aniqlangan”<sup>1</sup>. Davlat fiskal siyosati va monetar siyosatlarining iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan amaliyoti, mamlakatlarda kreditlash amaliyotining uzoq davom etishi va yuqori qiymatda qarz olish, uni moliyalashtirish haligacha jahon iqtisodiyotida o‘z asoratlariga ega. Shunday ekan iqtisodiy faollikni ta‘minlashda davlat fiskal va monetar siyosatining o‘rnini tahlil qilish va takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratish ahamiyatli bo‘lib qolmoqda.

Jahon amaliyotida nufuzli moliya muassasalari hisoblangan Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, BMTning Taraqqiyot dasturlari kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarning makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash borasida olib borilayotgan davlat iqtisodiy-monetar siyosatlari bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlarda belgilangan talablar asosida istiqbolda iqtisodiy faollikni ta‘minlashga qaratilgan davlat fiskal va monetar siyosatlari mexanizmlarini takomillashtirish imkonini bermoqda. Biroq, istiqbolda makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va iqtisodiy faollikka qaratilgan davlat fiskal va monetar siyosatlarini takomillashtirishning nazariy jihatlari, davlat fiskal va monetar siyosatini tahlil qilish va baholash uslubiyoti hamda ularning iqtisodiy dastaklari orqali iqtisodiy faollikni oshirish bilan bog‘liq muammolar hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan hamda yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kirmoqda.

O‘zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida davlat fiskal (budjet-soliq) siyosatining iqtisodiy faollikka qaratilgan dastak va vositalaridan oqilona foydalanish orqali “...barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta‘minlash”, bu sohada “2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish”<sup>2</sup> masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ammo, respublikada olib borilayotgan islohotlar orqali so‘nggi yillarda erishilgan yutuqlarga qaramasdan, davlat qarzi, davlat budjet defitsitining o‘shib borishi hamda iqtisodiyot soha va tarmoqlaridagi nomutanosibliklar mavjudligi barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashda

<sup>1</sup> Global economic prospects. January 2025. AWorld bank Group Flagship Report/ 2025 International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 1818 H Street NW, Washington, DC 20433.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

davlatning fiskal (budget-soliq) siyosatini takomillashtirish masalasini dolzarb muammolar sirasiga kirib qolmoqda. Shu sababdan bugungi kunda “soliq yukini izchil ravishda pasaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish, shuningdek, soliq ma’uriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishning eng muhim shartlaridir”<sup>3</sup> kabi vazifalarining belgilab qo‘yilishi davlatning fiskal (budget-soliq) siyosatidan samarali foydalanish masalasini hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biriga aylantirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 28-dekabrda PQ-459-son “O‘zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** Iqtisodiy faollikni ta‘minlashga qaratilgan va davlat tomonidan tartibga soluvchi makroiqtisodiy siyosat tarkibiy qismi sifatida davlat fiskal va monetar siyosatlarining nazariy metodologik masalalari bir qator xorijlik taniqli iqtisodchi olimlar, jumladan, J.Keyns, M.Fridmen, F.Maxlup, M.Pebro, G.Kassel, R.Mandell, M.Mussa, M.Obstfeld, J.Frankel, Dj.Taylor, R.Dornbush, Levi-Yeati, K.Reynxart, K.Rogoff, R.Makinnon, G.Shnabl, M.Goldshteyn, L.Krasavina, S.Moisevlarining<sup>4</sup> ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

---

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni.

<sup>4</sup> Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: GELIOS ARV, 1999. – 352-с.; Fridman M. «The Case for Flexible Exchange Rates» in Essays in Positive Economics. – Chicago, University Press, 1953.; Machlup F. International payments, debts, and gold. – London: George Alien & Unwin, 1966. Part one. Foreign exchange and balance of payments. 1. The theory of foreign exchange, pp.7-50.; Пebro М. Международные экономические, валютные и финансовые отношения: Пер. с франс. / Общ. Ред. Н.С.Бабинцевой. М.: Progress, Univvers, 1994. – 496-с.; Кассел Г. Инфляция и валютный курс. – М.: Elf-press, 1995, 23-с.; Mundell R. Optimal currency areas// American economic review 53(September), 1963. – pp.717-725.; Mussa M. Nominal Exchange Rate Regimes and the Behavior of Real Exchange Rates// Carnegie-Rochester Conference Series on Public Policy 25, 1986. – pp. 117-214.; Obstfeld M. Models of Currency Crises with Self-fulfilling Features» European Economic Review 40 (April), 1996. – 1037 p.; Jeffrey A. Frankel. No Single Currency Regime is Right for All Countries or At All Times. NBER

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan N.Jumayev, T.Bobakulov, T.Rasulov, B.Islamov, Z.Parpiyev, Z.Berdinazarov, S.Chepel, N.Sirajiddinov, Sh.Rajabbayev va boshqalarning<sup>5</sup> ilmiy tadqiqotlarida pul-kredit siyosatining ayrim nazariy-metodologik va amaliy jihatlarini tadqiq qilingan.

Biroq, hozirgi kunga qadar olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarda davlat fiskal va monetar siyosatlarining iqtisodiy faollikni ta‘minlashda moliyaviy salohiyatning ayrim qirralari, ahamiyati, xususiyatlari, turlari va boshqa jihatlariga ko‘proq e‘tibor qaratilgan. Bu esa, “Global inqiroz” davrida iqtisodiy faollikning pasayishi davrida davlat fiskal va monetar siyosatlarining o‘rni sohasida chuqur ilmiy ishlarni amalga oshirish uchun asos bo‘ldi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** iqtisodiy faollikni ta‘minlashda davlat fiskal va monetar siyosatining iqtisodiy faollikka yo‘naltirilgan mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

iqtisodiy faollikni ta‘minlashda davlat fiskal siyosatining iqtisodiy nazariy konsepsiyalarini o‘rganish asosida mualliflik taklifini ishlab chiqish;

monetar siyosatni amalga oshirishning zamonaviy instrumentlari va ulardan foydalanish yo‘nalishlarini aniqlash;

iqtisodiy faollikni ta‘minlashda davlat fiskal va monetar siyosatning xorij amaliy tajribasini o‘rganish asosida mamlakatning ushbu yo‘nalishdagi yo‘llarini aniqlab olish;

iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan davlat fiskal siyosati tahlilini amalga oshirish;

---

Working Paper No. 7338. Issued in September 1999; Taylor J.B. The Role of the Exchange Rate in Monetary Policy Rules // American Economic Review, 2001. 91(2):263-267.; Dornbusch R. Expectations and exchange rate dynamics. Journal of Political Economy, 1976. # 84, 1161–1176.; Levy- Yeyati, Eduardo and Federico Sturzenegger «To Float or to Fix» American Economic Review 93(4), 2003. – pp.1173- 1193.; Reinhart C.M., Rogoff K.S. The Modern History of Exchange Rate Arrangements //Quarterly Journal of Economics CXIX-1, 2004. – pp.1-48; McKinnon R., Schnabl G. The East Asian Dollar Standard, Fear of Floating, and Original Sin Review of Development Economics, 2004. 8(3), 331–360; Goldstein, M. Managed Floating Plus. Washington DC: Institute for International Economics, Policy Analyses in International Economics. 2002; Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. Под. ред. Красавина Л.Н. – М.: Финансы и статистика, 2001. – 608-с.; Моисеев С.Р. Международные валютно-кредитные отношения. – М.: Дело и Сервис, 2003. – 576-с.

<sup>5</sup> Jumayev N.X. O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini tartibga solish metodologiyasini takomillashtirish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2007 y. – 232 b.; Bobakulov T.I. Milliy valyuta barqarorligini ta‘minlash: muammo va yechimlar. – T.: “Fan va texnologiya”, 2007 y. – 184 b.; Rasulov T.S. Valyuta munosabatlarining nazariy asoslari. – T.: “Moliya”, 2007 y. – 316 b.; Islamov B., Parpiyev Z. “Challenges of Globalization and Exchange Rate Policies in Central Asian Independent States” in Hitotsubashi Journal of Economics. 2000. -Vol. 41# 1, June, pp. 27-52.; Berdinazarov Z.U. Valyuta siyosati metodologiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari. Monografiya. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2018. – 254 b.; Чепел С.В. Либерализация валютного рынка в Узбекистане и перспективы укрепления потенциала экономического развития. URL: <http://www.uzbearingpoint.com/files/2/a1.pdf>; Sirajiddinov N. “Currency regime of Uzbekistan: goals, consequences, ways to improve” International Relations: Politics, Economics, Law: Vol. 2017: Iss. 1, Article 8. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/intrel/vol2017/iss1/8>; Ражаббаев Ш.Р. и др. Риски и вызовы криптовалют для монетарной политики // Экономика и современный менеджмент: теория и практика, 2015. 15-с.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar siyosati va uning iqtisodiy faollikka ta’siri mexanizmini o‘rganish;

solliqlarning korxonalar iqtisodiy faolligini ta’minlash holati tahlilini amalga oshirish;

milliy iqtisodiyotda iqtisodiy faollikni ta’minlashda davlat fiskal siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar siyosatining iqtisodiy faollikni oshirishdagi rolini takomillashtirish yo‘nalishlarini ko‘rsatib berish;

ishbilarmonlik muhitini yaratishda davlat fiskal va monetar siyosati samaradorligini oshirish yo‘llari bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, tijorat banklari tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** iqtisodiy faolligini ta’minlashda davlat fiskal va monetar siyosati amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti davomida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, nazariy ma’lumotlarni umumlashtirish, statistik ma’lumotlarga dasturiy ta’minot orqali ishlov berish, kuzatish, tizimlashtirish, SAS tizimi orqali taqqoslash usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

iqtisodiyotda likvidlikni oshirish va banklar tomonidan kredit berish faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida Markaziy bank tomonidan pul massasi hajmini bosqichma-bosqich oshirish hamda qayta moliyalash (asosiy) stavkasini bosqichma-bosqich optimallashtirib borish taklif etilgan;

Respublikaning sharoiti “og‘ir” bo‘lgan tumanlarda 2025-yil 1-yanvargacha yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlariga qo‘shimcha imkoniyatlar berish maqsadida maxsus soliq rejimini joriy etish taklif etilgan;

yuridik shaxslar uchun soliq yukini qisman yengillashtirish, investitsion faollikni rag‘batlantirish va ishlab chiqarish obyektlariga sarmoya kiritishga turtki berish maqsadida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 2 foizdan 1,5 foizga kamaytirish taklif etilgan;

mahalliy budjetlar, ya’ni tuman va shaharlar moliyaviy barqarorligini ta’minlash, daromad manbalarini kengaytirish hamda hududiy soliq tizimini mustahkamlash maqsadida qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun tushadigan solliqlarni to‘liq hajmda mahalliy budjetlarga yo‘naltirish taklif etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

banklarning kreditlash imkoniyatlari kengayishiga hamda milliy iqtisodiyotda iqtisodiy faollikning oshishiga ijobiy ta’siri hamda iqtisodiyotdagi pul massasi oshishining asosiy qismi kredit kanali hissasiga to‘g‘ri kelishini inobatga olgan holda uning ichki bozordagi narxlar darajasiga o‘zining salmoqli ta’sirini o‘rganishga erishildi;

respublikaning sharoiti “og‘ir” bo‘lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, mol-mulkiga

solinadigan soliq stavkasini kamaytirilgan holda to'lash tizimini joriy etish ishlab chiqilgan;

milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar iqtisodiy faolligiga ta'sir ko'rsatib, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan (reduced tax rate) tizimni joriy etish asoslangan;

mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash maqsadida qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan tushumlarni tumanlar va shaharlar budjetlariga to'liq hajmda o'tkazish taklifi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarning ishonchligi** amalga oshirilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik ishonchlik intervalida tekshirilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida olingan xulosalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan davlat fiskal va monetar siyosatining o'rnini fundamental va amaliy jihatlarini o'rganish hamda rivojlantirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishining asosiy g'oya va materiallaridan davlat fiskal va monetar siyosatlarining iqtisodiy faollikni ta'minlashdagi moliyaviy mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan hukumat chora-tadbirlari tizimini kuchaytirishga qaratilgan dasturlarni, shuningdek, me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda manba sifatida foydalanishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Iqtisodiy faollikni ta'minlashda davlat fiskal va monetar siyosatining o'rne bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

iqtisodiyotda likvidlikni oshirish va banklar tomonidan kredit berish faoliyatini rag'batlantirish maqsadida Markaziy bank tomonidan pul massasi hajmini bosqichma-bosqich oshirish hamda qayta moliyalash (asosiy) stavkasini bosqichma-bosqich optimallashtirib borish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonidagi belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida banklarning kreditlash imkoniyatlari kengayishiga hamda milliy iqtisodiyotda iqtisodiy faollikning oshishiga ijobiy ta'sir qildi hamda iqtisodiyotdagi pul massasi oshishining asosiy qismi kredit kanali hissasiga to'g'ri kelganligi bois, uning ichki bozordagi narxlar darajasiga o'zining salmoqli ta'siriga erishildi;

Respublikaning sharoiti "og'ir" bo'lgan tumanlarda 2025-yil 1-yanvargacha yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha imkoniyatlar berish maqsadida maxsus soliq rejimini joriy etish taklifi O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 4-iyundagi 06/41-11774-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida respublikaning sharoiti “og‘ir” bo‘lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratishga erishildi;

yuridik shaxslar uchun soliq yukini qisman yengillashtirish, investitsion faollikni rag‘batlantirish va ishlab chiqarish obyektlariga sarmoya kiritishga turtki berish maqsadida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 2 foizdan 1,5 foizga kamaytirish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda O‘RQ-741-son “O‘zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 4-iyundagi 06/41-11774-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar iqtisodiy faolligiga ta‘sir ko‘rsatib, 2022-yilda soliq to‘lovchilar ixtiyorida 43,6 milliard so‘m qoldirilishiga va ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatining modernizatsiyalashuviga erishilgan;

mahalliy budjetlar, ya‘ni tuman va shaharlar moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, daromad manbalarini kengaytirish hamda hududiy soliq tizimini mustahkamlash maqsadida qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun tushadigan soliqlarni to‘liq hajmda mahalliy budjetlarga yo‘naltirish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrda “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-sonli Qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 4-iyundagi 06/41-11774-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida respublika tumanlari va shaharlari mahalliy budjetlariga 2022-yilda 234,6 milliard so‘m mablag‘lar ta‘minlanishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 5 ta ilmiy anjumanlar, jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 132 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot ishining maqsadi hamda asosiy vazifalari yoritilgan. Shuningdek, dissertatsiya tadqiqotining obyekti va predmeti keltirilgan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili bayon etilgan, tadqiqotning oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi yoritilgan, tadqiqot ishida foydalanilgan uslublar, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi va uning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha umumiy ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiya ishining **“Iqtisodiy faollikni ta‘minlashga qaratilgan davlat fiskal va monetar siyosatlarining nazariy jihatlarini”** nomli birinchi bobida iqtisodiy faollikni ta‘minlashda davlat fiskal siyosatining iqtisodiy-nazariy konsepsiyalari, monetar siyosatni amalga oshirishning zamonaviy instrumentlari va ulardan foydalanish yo‘nalishlari, iqtisodiy faollikni ta‘minlashda davlat fiskal va monetar siyosatning xorij amaliy tajribasi o‘rganilgan.

Fiskal siyosatning iqtisodiy mazmuniga doir turli xil qarashlarni tahlil qilish, aniq iqtisodiy-ijtimoiy tizimlar sharoitidagi va amal qilish xususiyatlarini hamda davlatning iqtisodiyotga samarali ta‘sir qilish dastaklaridan ekanligini asoslash va milliy iqtisodiyotning muvozanatligini ta‘minlashdagi ustuvor yo‘nalishlarini aniq iqtisodiy tamoyillarini belgilash zarurdir. Aynan davlat institutining paydo bo‘lishi bilan fiskal siyosat jamiyatdagi turli xil iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning zaruriy tarkibiy qismi va jamiyat rivojlanishi obyektiv ravishda taqozo qiladigan talablaridan biri bo‘lib kelgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda “monetar siyosat”, “monetar siyosat instrumentlari” hamda “pul-kredit siyosati konsepsiyalar”i xususida ko‘pchilik olimlar tomonidan fikrlar bildirilgan, jiddiy tarzda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda xulosalar shakllantirilgan. Xalqaro bank amaliyotida “pul-kredit siyosati” va “monetar siyosat” tushunchalarini sinonim tushunchalar sifatida talqin qilish keng tarqalgan. Jumladan, taniqli iqtisodchi olim, AQSh Federal zahira tizimi prezidenti B.Bernanke o‘zining ilmiy-tadqiqot ishlarida va ilmiy maqolalarida faqat “monetar siyosat” tushunchasidan foydalangan.

Muallif fikricha, bu o‘rinda monetar siyosat konsepsiyani to‘liq ochish mamlakat oldida turgan vazifalarni ochishda muhim hisoblanadi (1-rasm).

1-rasmda muallif monetar siyosatning maqsadlariga erishish jarayonini ko‘rsatib beradi. Unga ko‘ra monetar siyosat konsepsiyasi tizimning markaziy elementi. Bu monetar siyosatning umumiy strategiyasi va yo‘nalishlarini belgilaydi. Monetar siyosatning asosiy maqsadlari odatda inflyatsiyani nazorat qilish, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va ish bilan ta‘minlashni qo‘llab-quvvatlash kiradi.



**1-rasm. Monetar siyosat kontseptsiyasining yakuniy va oraliq maqsad hamda vazifalari<sup>6</sup>**

Davlatning fiskal va monetar siyosatlari mohiyatiga bo'lgan nazariy qarashlar evolyusiyasi uzoq va murakkab jarayon bo'lib, u iqtisodiy fikrning rivojlanishi, iqtisodiy voqelikning o'zgarishi va yangi iqtisodiy muammolarning paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu evolyusiyaning asosiy bosqichlari va ularga xos nazariy qarashlarini muallif to'rtta maktabga bo'lgan holatda tahlil qiladi (1-jadval).

**1-jadval.**

**Davlat fiskal va monetar siyosatlari mohiyatiga bo'lgan nazariy qarashlar evolyutsiyasi va O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi<sup>7</sup>**

Nazariy konsepsiya	Asoschilari	Fiskal siyosatga munosabati	O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi
Keynsianizm	J.M. Keyns	Fiskal kengaytirish vositasi sifatida xarajatlarni oshirish lozim deb hisoblaydi	2020-2022-yillarda pandemiya sharoitida xarajatlar orqali talabni rag'batlantirish
Neoklassik maktab	D.Rikardo, M.Fridman	Soliq yukining kamaytirilishi va budjet muvozanatini ta'minlash muhim	Soliq imtiyozlari, tadbirkorlik sohaslarida davlat ishtiroki qisqarish tendensiyasi
Institutsional nazariya	D.Nort	Davlat institutlari samaradorligi fiskal siyosat samaradorligini belgilaydi	Fiskal shaffoflikni oshirish, raqamli budjet tizimiga o'tish (2020 yildan)
Monetarizm	M. Fridman	Davlat xarajatlari cheklangan bo'lishi lozim, inflyatsiyaga qarshi nazorat kerak	MB siyosatlari orqali xarajatlarni cheklash va inflyatsiyani kamaytirish

<sup>6</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

<sup>7</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Fiskal siyosatni iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiyotning muvozanatligini ta'minlash dastagi sifatida foydalanish asosiy fikrlar ingliz iqtisodchisi J.M.Keyns ga mansubdir. U jamiyat taraqqiyot darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning uch guruhini ajratib ko'rsatib, birinchi guruhni boshlang'ich omillar ishchi kuchining malaka darajasi va miqdori, mavjud uskunalarning soni va sifati, ikkinchisiga tatbiq etiladigan texnologiya, raqobat darajasi, iste'molchining didi va odatlari, turli jadallikdagi mehnatning og'irligi, uchinchisiga nazorat va ishlab chiqarishni tashkil etishning ahamiyati, shuningdek, jamiyatning ijobiy tuzilishi tashkil etadi. Keyns davlat aralashuvi vazifasini mustaqil o'zgaruvchan omillarga, ular vositasida esa bandlik va milliy daromadga ta'sir ko'rsatishdan iborat, deb hisoblagan. Bunda hal qiluvchi shart sifatida fiskal va pul kredit siyosati vositasida investitsiyalarni rag'batlantirishda namoyon bo'ladi, deb ko'rsatadi. Shu bilan birga ular amalga oshirilishi mumkin bo'lgan fiskal siyosatni iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun hal etiladigan vazifalaridan kelib chiqib, rag'batlantiruvchi va to'sqinlik qiluvchi siyosatlar sifatida ifodalashga alohida e'tibor berilgan. Uningcha "fiskal siyosatning asosiy maqsadi, ishsizlik va inflyatsiyani tugatish"dan iboratdir. J.Keyns va uning izdoshlari o'zlarining pul-kredit konsepsiyasida asosiy e'tiborni budjet siyosati dastaklaridan faol va ustuvor tarzda foydalanishga qaratganlar. Tadqiqotchi ta'kidlashich ikkinchi jahon urushiga qadar bu konsepsiya jiddiy qarshiliklarga uchramadi. Ammo, XX-asrning 50-yillaridan boshlab monetaristik pul nazariyalarining qoidalari keynscha konsepsiyasining asosiy qoidalarini inkor qila boshladi. Taniqli iqtisodchi olimlarning monetar siyosatning turlari xususidagi fikrlarini o'rganish va umumlashtirish natijasida tadqiqotchi tomonidan, monetar siyosatning ikki asosiy turi ajratib ko'rsatilgan: 1. Restriksion monetar siyosat; 2. Ekspansionistik monetar siyosat.

Restriksion monetar siyosat deganda, odatda, muomaladagi pul massasining o'sish sur'atlarini jilovlashga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi. Ekspansionistik monetar siyosat deganda muomaladagi pul massasining multiplikativ kengayishini ta'minlash asosida to'lovga qobil talabni rag'batlantirishga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi.

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev "pul-kredit siyosati - Markaziy bank tomonidan pul massasi va pullar qiymatini boshqarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bo'lib, mamlakatda baholar, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi"<sup>8</sup> deb hisoblaydi.

Hozirgi sharoitda iqtisodiyotda likvidlikning yetarli darajada emasligi va banklar tomonidan kredit berish faolligining pastligi iqtisodiy o'sishni cheklab qo'yishi mumkin. Xususan, kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda muammolar mavjudligi, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini qiyinlashtiradi. Shu sababli muallif iqtisodiyotda likvidlikni oshirish, banklarning kredit berish faoliyatini rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash zarur, deb hisoblaydi.

Muallif fikricha, Markaziy bank quyidagi choralarni bosqichma-bosqich amalga oshirishi lozim. Birinchi bosqichda pul massasi hajmini oshirish lozim.

---

<sup>8</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.

Bunda ochiq bozorda davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olish, banklarning majburiy zaxira normalarini pasaytirish amalga oshiriladi. Bu banklarda likvidlikni oshirish va ularning kredit berish imkoniyatlarini kengaytirishga olib keladi. Ikkinchi bosqichda qayta moliyalash (asosiy) stavkasini optimallashtirish lozim. U iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasi va makroiqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda, qayta moliyalash stavkasini bosqichma-bosqich pasaytirib borish orqali oshadi. Bundan maqsad banklar uchun kredit resurslarining narxini arzonlashtirish va kredit berish faolligini rag'batlantirishdir. Uchinchi bosqichda banklarning kredit portfelini diversifikatsiya qilishni qo'llab-quvvatlash lozim. Ushbu vazifaning ijrosi ustuvor sohalarni (kichik biznes, innovatsion loyihalar va hokazo) kreditlashni rag'batlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish va joriy etish olib keladi. Natijada iqtisodiyotning turli sohalarini moliyalashtirish takomillashadi va kredit risklari kamaydi. To'rtinchi bosqichda kreditlash shartlarini yengillashtirish lozim. Kreditlashning garov ta'minoti talablarini qayta ko'rib chiqish va kredit olish tartiblarini soddalashtirishga olib keladi. Bundan maqsad kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, kichik biznes uchun ma'qul bo'ladi. Beshinchi bosqichda tartibga solish talablarini muvofiqlashtirish lozim. Bu banklarning faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va ularni iqtisodiy vaziyatga moslashtirishga yordam beradi. Banklarning kreditlash faolligini cheklab qo'yadigan ortiqcha talablarni bartaraf etishga erishiladi.

Mazkur bosqichlarda xatarlar va ularni kamaytirish yo'llari sifatida muallif quyidagilarni taklif qiladi:

pul massasining haddan tashqari ko'payib ketishi inflyatsiyani tezlashtirishi mumkin. Bu xatarni kamaytirish uchun Markaziy bank inflyatsiya darajasini doimiy nazorat qilib borishi va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirib turishi lozim;


kreditlash shartlarining yengillashtirilishi bank kredit portfelining sifatini pasaytirishi mumkin. Bu xatarni kamaytirish uchun banklar kreditlash jarayonini diqqat bilan tahlil qilishlari va risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirishlari zarur.

Markaziy bank tomonidan taklif etilayotgan choralarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotda likvidlikni oshirish, banklarning kredit berish faoliyatini rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash mumkin. Bunda, inflyatsiya va kredit risklari kabi xatarlarni hisobga olish va ularni kamaytirish choralarni ko'rish muhim ahamiyatga ega.

**“O‘zbekistonda iqtisodiy faollikni ta‘minlashga qaratilgan fiskal va monetar siyosatlarining hozirgi holati”** deb nomlangan dissertatsiya ishining ikkinchi bobida iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan davlat fiskal siyosati holati tahlili, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar siyosati va uning iqtisodiy faollikka ta'siri, soliqlarning korxonalar iqtisodiy faolligini ta'minlash holati tahlili amalga oshirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2000-2024-yillar oralig'idagi davlat budjeti sarf-xarajatlari va daromadlarini tahlili ko'satishicha davlat budjeti xarajatlari va daromadlarining o'zgarishi real YaIMning o'sish sur'atlari bilan mutanosib ravishda o'zgarish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2000-yilda davlat budjeti daromadlari YaIMga nisbatan 28,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib esa, 20,8 foizga

pasaygan. Xuddi shu tarzda davlat budjeti xarajatlari 2000-yilda YaIMga nisbatan 29,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 26,6 foizga kamaygan. Mamlakatimizda real YaIMning o'sish sur'atlarini tahlili ko'rsatishicha 2000-2024-yillardagi eng past tendensiya 2000 va 2020-yillarda kuzatilgan. 2020-yilda esa mazkur ko'rsatkich iqtisodiy pandemiya holatiga qaramasdan 1,6 foizga o'sishi ta'minlangan. Real YaIMning eng yuqori o'sish sur'atlari 2010, 2015 va 2016-yillarda kuzatilgan, bunda o'sish sur'ati o'rtacha 8,0 foizlik darajani tashkil etgan. Shunga mos ravishda davlat budjeti daromadlari YaIMga nisbatan o'rtacha 21,0 foizlik, davlat budjeti xarajatlari esa YaIMga nisbatan qariyb 21,0 foizlik darajalarni tashkil etgan (2-rasm).




**2-rasm. 2000-2024 yillarda real YaIM o'sish sur'atlari, davlat budjeti daromadlari va xarajatlari (YaIM nisbatan foiz hisobida)<sup>9</sup>**

2021-yilda ko'pgina mamlakatlarda daromadlarning o'sishi hisobiga past budget taqchilligi kuzatildi. Pandemiya bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiyotni tiklashga qaratilgan vaqtinchalik chora-tadbirlar natijasida xarajatlar avtomatik ravishda qisqarishiga olib keldi. Shuningdek, 2021-yil budget qisqartirishlari tiklanish darajasini pasaytirishi mumkin, uning tezligi va miqdori noaniqligicha qolmoqda.

Mamlakatda so'nggi yillarda iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar uchun qulay soliq muhitini yaratish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, investitsiyalar oqimini kuchaytirish, fan-texnika yutuqlarini iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy va boshqa sohalarga keng qo'llagan holda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni rag'batlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlari qo'llanilmoqda. Biroq, mazkur soliq imtiyozlarini taqdim etishning huquqiy asoslarida nomuvofiqliklar mavjudligi, soliq imtiyozlari natijalarini monitoring qilish mexanizmining mavjud emasligi, soliq imtiyozlari aniq shartlar asosida taqdim etilmasligi, korxonalarining innovatsion va

<sup>9</sup> Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

investitsion faolligini oshirishga qaratilgan samarali va zamonaviy soliq mexanizmlari yetarli emasligi, mavjudlari ham lozim darajada natija bermayotganligi kabi holatlar korxonalarining innovatsion-investitsion faoliyatini tartibga solishda soliq imtiyozlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.



### 3-rasm. O'zbekistonda soliq imtiyozlaridan foydalangan korxonalarining me'yoriy-huquqiy hujjatlar kesimidagi tahlili<sup>10</sup>

3-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, turli normativ-huquqiy hujjatlarga asosan soliq imtiyozlaridan foydalanish miqyosi yillar davomida o'zgarib turgan. Eng ko'p korxonalar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi asosida imtiyozlardan foydalangan, so'ngra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari asosida imtiyozlardan foydalanilgan.

Qator tumanlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining pastligi, ishsizlikning yuqoriligi, investitsiyalarning yetarli emasligi bilan tavsiflanadi. Bunday tumanlarda tadbirkorlikni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish orqali vaziyatni yaxshilash mumkin. Og'ir sharoitdagi tumanlarda tadbirkorlik faoliyatini jonlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish uchun muallif tomonidan 2025 yil 1 yanvargacha yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha imkoniyatlar beruvchi maxsus soliq rejimini joriy etish taklifi berildi.

Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari uchun dastlabki 3 yil davomida foyda solig'i, aylanmadan olinadigan soliq va mol-mulk solig'idan ozod qilish lozim. Bundan maqsad tadbirkorlik subyektlariga faoliyatini boshlash va rivojlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy imkoniyat yaratish yuzaga keladi. Tadbirkorlik subyektlarining soliq yukini yengillashtirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish bu o'rinda ham muhimdir. Kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan soliq rejimini qo'llash (masalan, yagona soliq to'lovi), soliq

<sup>10</sup> 2016-2018-yillardagi ma'lumotlar S.A. Giyasov "Korxonalarining innovatsion-investitsion faoliyatini tartibga solishdasoliq imtiyozlarini takomillashtirish" iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati 15-betda berilgan ma'lumotlari hamda 2019-2020-yillardagi ma'lumotlar O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

hisobotini yuritish va soliqlarni to'lash jarayonini soddalashtirishni qo'llash maqsadga muvofiq. Tadbirkorlik subyektlarida yangi ish o'rinlari yaratilganda ijtimoiy soliq stavkalarini pasaytirish aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytiradi va aholi bandligini ta'minlaydi. Mahalliy hokimiyat organlariga yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlarini mahalliy soliqlar va yig'implardan ozod qilish yoki imtiyozli stavkalar belgilash huquqini berish ham muhimdir. Bu mahalliy budjetlarga qo'shimcha yuk tushmasdan, tadbirkorlikni rag'batlantirish.


Muallif tomonidan taklif etilayotgan maxsus soliq rejimi og'ir sharoitdagi tumanlarda tadbirkorlikni rag'batlantirish va iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish uchun muhim vosita bo'lishi mumkin. Bunda, qonunbuzarlik holatlarining oldini olish, mahalliy budjetlarni va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha boshqa choralarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Markaziy bank monetar siyosatida qayta moliyalash instrumenti bozor foiz stavkalariga hamda almashinuv kursi o'zgarishiga ta'sir etuvchi asosiy instrumentlaridan biridir. Aksariyat davlatlarda Markaziy bank qayta moliyalash foizi indikativ foizlardan hisoblanadi. Bu kabi holat O'zbekiston iqtisodiyotida ham kuzatiladi. Markaziy bank qayta moliyalash siyosatidan dastlabki bosqichda pul bozoridagi foiz stavkaga ta'sir ko'rsatsa, keyingi bosqichlarda tijorat banklarining qisqa muddatli depozit va kredit foizlariga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyotda kreditlar foizining o'zgarishi yalpi talabning oshishiga va aksincha pasayishiga turtki beradi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasiga hamda almashinuv kursi dinamikasiga ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirishda dastlab markaziy bank asosiy foiz stavkani o'zgartirish orqali pul massasiga ta'sir ko'rsatadi. Markaziy bank asosiy foiz stavkani o'zgartirish orqali pul massasiga ta'sir ko'rsatish sezilarli bo'lishi uchun tijorat banklarini kreditlash mexanizmi yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim.

Muallif fikricha, Markaziy bank asosiy foiz stavkani pasaytirish orqali tijorat banklarini kredit olishga qiziqtiradi va natijada pul massasining oshishiga olib keladi. Agar markaziy bankning maqsadi pul massasini qisqartirish bo'lsa, asosiy foiz stavkani oshirish orqali tijorat banklarining ortiqcha kredit olishga bo'lgan xohishini so'ndiradi va natijada pul massasi oshishini cheklaydi.

Shu bilan birga, markaziy banklar asosiy foiz stavkani o'zgartirmasdan pul massasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu holat asosan rivojlangan davlatlar tajribasida keng qo'llaniladi. Xususan, rivojlangan davlatlarda 2022-yil mart oyiga qadar markaziy banklar nol foizli siyosat yuritadi. Buning ma'nosi shundan iboratki, markaziy banklar asosiy foiz stavkani shu darajada pasaytirishganki natijada asosiy foiz stavkani pasaytirish orqali pul massasiga ta'sir ko'rsatish ko'lamini torayib ketgan. Bu holatda markaziy banklar asosiy foiz stavkani o'zgartirmasdan ochiq bozor siyosati yordamida pul massasiga ta'sir ko'rsatishgan. Ammo 2024-yil mart oyidan keyin markaziy banklar inflyatsiya kutilmalarini yuqorilashganligi uchun asosiy foiz stavkani ko'tarishga majbur bo'lishdi. O'zbekiston amaliyotini tahlil qiladigan bo'lsak, 2013-2024-yillarda pul massasining yillar kesimida o'zgarishi betartib bo'lgan. Xususan, 2017 va 2021-yillarda oldingi yilga nisbatan pul massasining o'sishi keskin yuqori bo'lgan va mos ravishda 40,99 va 30,28 foizlarni tashkil etgan. Ammo o'sha davrda Markaziy bank asosiy foiz stavkani keskin

pasaytirgani yo‘q. Markaziy bank asosiy foiz stavkasi bilan pul massasi o‘shishi o‘rtasidagi bog‘liqlikka nazar solsak, unda ular o‘rtasida sust bo‘lsada teskari bog‘liqlik mavjud bo‘lib, korrelyatsiya ko‘rsatkichi 0,17 ga teng bo‘lgan.



**4-rasm. Markaziy bank asosiy foiz stavkasi va pul massasi o‘rtasidagi bog‘liqlik<sup>11</sup>**

Hozirgi iqtisodiy sharoitda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning yuqori stavkalari (2 foiz) investitsion faollikni cheklab, ishlab chiqarish obyektlariga sarmoya kiritishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bu, ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarini uchun jiddiy muammo bo‘lib, ularning asosiy vositalari (binolar, inshootlar, uskunalari) katta miqdordagi mol-mulk solig‘ini to‘lashga majbur qiladi.

Muallif yuridik shaxslarning soliq yukini yengillashtirish, investitsion faollikni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish obyektlarini modernizatsiya qilish va kengaytirishga turtki berish, natijada iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash lozim, deb hisoblaydi. Bunda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini 2 foizdan 1,5 foizga kamaytirish maqsadga muvofiq. U quyidagi imkoniyatlarni beradi:

solliq stavkasini pasaytirish yuridik shaxslarning moliyaviy resurslarini ko‘paytiradi va ularga o‘z faoliyatini rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi;

solliq yukining yengillashishi korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish va ishlab chiqarish obyektlariga sarmoya kiritishga undaydi;

ishlab chiqarish obyektlariga investitsiyalar korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, mahsulot sifatini yaxshilashga va raqobatbardoshlikni ta‘minlashga yordam beradi;

korxonalarining ishlab chiqarish hajmlarining oshishi va kengayishi yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga olib keladi va aholi bandligini ta‘minlashga xizmat qiladi;

garchi solliq stavkasining pasayishi qisqa muddatda budjetga solliq tushumlarining kamayishiga olib kelishi mumkin bo‘lsa-da, iqtisodiy faollikning

<sup>11</sup> <https://cbu-uz.translate.google/oz> O‘zbekiston Markaziy banki ma‘lumotlari.

jonlanishi va ishlab chiqarish hajmlarining oshishi uzoq muddatda budjetga soliq tushumlarining o‘shishini ta’minlaydi.

Bu xatarni kamaytirish uchun budjet xarajatlarini optimallashtirish va samarali soliq siyosatini olib borish zarur. Investitsiya loyihalarini baholash va nazorat qilish tizimini takomillashtirish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish orqali ushbu xatarni kamaytirish mumkin.

